

XVII asrda yashagan Xiva xoni A. Bahodirxonning "Shajarayi tarokima" asari turkiy xalqlarning kelib chiqishi va ularning tarixan tarkib topishi haqida qimmatli ma'lumotlar beradigan noyob yodgorlikdir. Muallif konkret tarixiy shaxslar haqida gapirarkan, ularning xarakterlarini yaratadi, qiziqarli voqealarni badiiy bo'yqlarda chizadi.

Kirish

XVII asrda Turkiston Xiva xonligi, Buxoro xonligi, Qo'qon xonligi, Ulug' juz, O'rta juz, Kichik juz hamda Qashqariya (Sharqiy Turkiston) xonliklariga bo'linib ketgan edi. Siyosiy tarqoqlik hamda eski savdo yo'li yoki ipak yo'li o'z yo'nalshini o'zgartirib, dengiz muhitlariga ko'chishi Turkistonning iqtisodiy, madaniy jihatdan tushkunlikka olib kelgan sabablardan biridir. Ikkinchidan, xonliklar o'rtasidagi to'xtovsiz urushlar ham barcha xonliklarda xo'jalik va madaniy hayotni orqaga ketishiga olib keldi.

Shuningdek, Turkiston ulug' davlatlarning orasida siyosiy-iqtisodiy, madaniy jihatdan maxsus qamal holatida edi. Shimolda Rossiya imperiyasi, sharqda Xitoy imperiyasi har tomonlama xavf solib turar edi. Shunday bo'lsa ham bu davrda turli janrlarda tarixiy, badiiy, falsafiy, diniy, tibbiy mazmundagi asarlar dunyoga keldi. Xiva xoni Abulg'oziy Bahodirxon, So'fi Olloyor, Boborahim Mashrab, Turdi Farog'iy, Saido Nasafiy, Mahmud ibn Valiy, Muhammad Amin Buxoriy, Yusuf Qorabog'iy kabi qator shoir, faylasuf, tarixchi, tabiatshunos olimlar yetishib chiqdi.

"Shajarayi tarokima" yozma obidasining muallifi Xiva xoni, Abulg'oziy Arab Muhammadxon o'g'li hijriy sana 1012 yil 15 Rabbiyul avval oyida, milodiy sana 1603 yil 12 avgustda XVII asrdagi Xiva xonligi poytaxti Urganch shahrida tavallud topgan, o'zbek elining qo'ng'iroq urug'idandir. Abulg'oziyxonning hayoti, ijtimoiy siyosiy faoliyati "Shajarayi turk" yozma obidasida batatsil so'zlab o'tilgan.

Abulg'oziy Bahodirxonning asarları ichida "Shajarayi tarokima" ("Turkmanlar shajarasi"), "Shajarayi turk" ("Turklar shajarasi") muhim o'rinni egallaydi. Muallifning aytishiga qaraganda, "Shajarayi tarokima" turkman oqsoqolları va ulug' boshliqlarning taklifiqa ko'ra oddiy turk kishisi tushunadigan, hatto besh yashar turk o'g'loni ham anglaydigan tilda yozilgan. Asarda Odam ato avlodlari, Muhammad alayhissalom payg'ambarimizga qadar o'tgan payg'ambarlar eslanadi, Nuh payg'ambarining Xom, Som, Yofas hamda Yofasning o'g'li Turk haqida hikoya qiladi, turk, mo'g'ul xalqlari tarixi so'zlanadi, Qoraxon o'g'li O'g'uzzon faoliyati haqida to'xtaladi, butun o'g'uz eli va turkman xalqining qabilaviy tarkibi, urug'larining bir-biri bilan bog'langan nuqtaları, tarixiy- etnogenezini ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, Xiva xonligi bilan turkmanlarning siyosyy kurashlari ham eslab o'tilgan. "Shajarayi tarokima" asari Abulg'oziy Bahodirxon taxtga o'tirgandan ancha vaqt o'tgandan so'ng yozilganligi ta'kidlangan. Bu ma'lumotga qaraganda, 1660B. 1661 yillar orasida ijod qilingan. "Shajarayi tarokima" yozma obidasida turkman qavmi bilan Xiva xonligi orasidagi siyosiy kurashlar, turkmanlarni itoat qildirish uchun olib borilgan kurashlar bayon etilgan, o'zbek va turkman xalqlari o'rtasida inoqlik o'rnatilishi ta'kidlangan.

Abulg'oziy Bahodirxon 1630B. 1640 yillari Eronning Isfixon shahrida siyosiy tutqunlikda yashagan davrlarida Rashididdin, Sharafiddin Ali Yazdiy kabi tarixchilarning asarları bilan tanishgan. Bu asarni yozganda Eron va Turounning tarixiga oid o'n sakkizta yozma manbalardan hamda xalq og'zida saqlanib qolgan rivoyatlardan foydalangan. Asaring o'nlab qo'lyozma nusxaları O'zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida, Toshkentdagı Alisher Navoiy nomli kutubxonada, Ashxbobodagi Turkmaniston Fanlar akademiyasi kutubxonasi, Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Leningrad bo'limida hamda Istanbul kutubxonalarida saqlanmoqda. Biz asarni nashrga tayyorlashda A. N. Kononov tomonidan O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan eng ishonchli va to'liq nusxasi asosida qiyosiy metod bilan 1958 yili Moskva va Leningradda nashr qilingan arab yozuvidagi asar matnidan foydalandik. Ushbu asarni nashrga tayyorlashda bir qator so'zlar eski o'zbek tili talaffuzi asosida berildi. Shuningdek, voqe so'zi tarkibidagi ye tovushi jarangsiz q tovushi bilan kelishi turkiy til qonunlariga mos kelmaydi, shunga ko'ra ye o'rnida qattiq talaffuz qilinuvchi "i" tovushini qo'lladik. Bundan tashqari, qon, g'on, kon, gon, roq qo'shimchalari tarkibidagi o'unli tarixan hamda hozir ham o'zbek tilining fonetik qonunlariga zid bo'lgani uchun a tovushi orqali qan, g'an, kan, gan, raq, rak shaklida berdik.

Turkiy tilga xos ko'k, ko'l, uchun kul, ulush kabি so'zlarda yumshoq o' va u tovushlarini ifodalash imkoniyati bo'lindi.

Bismillohir rohmanir rohiym

Sipos va stoyish ul egaga kim aning hech avvali va oxiri yo'q va yurtining zavoli yo'q va otasi va onasi yo'q va xotini va o'g'uli va qizi va kengasha turg'an kishisi yo'q turur, oshni va suvni andaq ulashturg'uvchi yo'q turur kim gadoydin to podshohg'acha va qumrsqadin to pilg'acha (filg'acha) va chibindin to semrug'gacha barchasining ahvolig'a loyiq berur. Bir kun hech qayusining ulushini kam qilmas, agar yer yuzinda ko'kargan yig'achlarning barchasi qalam bo'lsa va tengizlar siyoh bo'lsa, barcha odam farzandi bitikchi bo'lsa taqi yuz ming va yuz ming yil aning sifatini bitsa teng'izdan bir qatra va tog'din bir misqol toshni bitgandin azraq bo'lgay. Bas mening aydganim ne bo'lg'ay Do'rud va tahl beshumor ul payg'ambar'a kim barcha payg'ambarlarning yaxshisi va xudoy do'sti va barcha odam farzandiga yuborgan elchisi turur. Aning yoron va o'g'lonlarig'a ko'pdin ko'p tangri rahmati bo'lg'ay. Emdi mundin so'ng Chingiz avlodindin Urganchi Arab Muhammadxonning o'g'li Abulg'oziyxon aytaturur kim ko'p emgaklar ko'rgandin so'ng yoshimiz o'ttuz to'qquzg'a yetganda tarix ming taqi ellik birda yilon yilinda Xorazm mamlakatindan otamiz taxtinda o'lthurub, yurt ishiga mashg'ul bo'lduq. Ul vaqtida turkman Mangqishloq va Abulxon va Tejan suvining yoqasida o'lthurub erdilar. Xorazmda o'lтурганлари ham bizning kelurimizni eshitib qochib, bu aytlig'an uch yurtg'a bordilar. Andin so'ng bir nechasi ko'ch birlan va nechasi yo'l birlan uch yurtda bir evli qolmay barchasi Xorazm'a keldilar taqi yaxshilari navkar va yomonlari ra'iyatlari va beklari mening tarixni yaxshi bilurimni eshitib tururlar taqi bir kun barchalari kelib, arz qildilar kim bizning ichimizda O'g'uznomalik ko'p turur, ammo hech yaxshisi yo'q, barchasi g'alat va birisi birising'a muvofiq ermas, har qaysisi bir turluk va bir durust e'tibor qilg'udek tarix bo'lsa erdi, yaxshi bo'lur erdi teb o'tun qildilar ersa, onlarning o'tunlarini qabil qildim. Aning uchun kim bu kitobni aytqandin o'n yetti yil ilgari barcha turkmanlar bizga yog'i bo'lub erdilar. Ul sababdin biz anlarni ko'p chopduq va bir karrat Xurosonda Durung'a ta'alluq Burma tegan suvning yoqasinda bizning birlan saf tortib (6-bet) urushdilar. Tangri bizga berdi.

Avvaldin to oxirg'acha biz sababli yaxshi va yomondin yigirma ming choqlik kishilari o'ldi, aning ichinda gunohkorlari ham bor erdi va begunohlari ham bor erdi. Payg'ambar aytib tururlar kim-qalan nabiyyu alayhissalom adxalassururi fi qalbia mo'minni xayr min ibodatis saqalini ma'nisi bu turur kim agar bir kishi bir musulmon kishining ko'nglini xushhol qilsa, aning savobi barcha Odam farzandlarining va jinlarning tangriga bandalik qilg'an savobindin ko'p turur. Bas necha ming kishilar mening bu so'z aytqanimg'a bilmaganlarin bilib ko'ngillari xush bo'laturur. Xudoysi taolodin umidim bor ki muning savobi agar ul qatl'omda gunoh bo'lg'an bo'lsa, ang'a g'olib kelgay teb va taqi ul kim bir kun bir kishi bu kitobni o'qub bilmaganini bilsa, bizning ruhimizga fotiha o'qug'ay teduk taqi kitobni aytmaqqa ruju' qilduq taqi bu kitobga "Shajarayi tarokima" teb ot qo'yduq. Barcha biling kim, bizdin

burun turkiy tarix aytqanlar arabiylug'atlarni qo'shub tururlar va forsiyni ham qo'shub tururlar va turkiyni ham saj' qilib tururlar, o'zlarining hunarlarin va ustodliqlarini xalqg'a ma'lum qilmaq uchun biz munlarning hech qaysisini qilmaduk, aning uchun kim, bu kitobni o'qug'uchi va tinglag'uchi albatta turk bo'lg'usi turur. Bas, turklarga turkona aytmaq (aytmoq) kerak, to ularning barchasi fahm qilg'aylar bizning aytg'an so'zimizni (7-bet) bilmasalar andin ne hosil agar anlarning ichlarida bir va yo ikki o'qug'an aql kishi bo'lsa ul bilsa, bilmagan ko'pning qaysi birina aytib bildurur. Bas, andaq aytmaq kerakkim, yaxshi va yomon barchalari bilib ko'ngillariga ma'qul bo'lg'ay. Emdi Odamdin to bu vaqtg'acha kim tarix mingda yetmis birda turur turkmanlarning va so'ng turkman otin ko'tarib, turkmanga qo'shilg'an ellarning ancha bilganimizni bir-bir aytaling, bilmaganimizga iloj ne.

Odam Alayhissalomning Zikri

Xudoysi taolo farishtalarga aytidikim, turpaqdin kishi yasab, jon berib, yer yuzinda o'z o'rnumg'a xalifa qilib qo'ya tururmen tedi ersa, farishtalar aytildilar: anlar yuqorig'i to'shak birlan quyig'i to'shakni zabit qila bilmassalar. Ul sababdin senga osiy bo'lurlar, yaratg'aning o'la turur tedilar. Xudoysi taolo aytidi: men bilganni sizlar bilmassizlar, baringlar! Turpaqdin bir kishining suratin yasanglar tedi. Azroil alayhissalom xudoyning amri birlan barcha yer yuzingdag'i har turpaqdin olib, Makkayi Muazzama birlan Toifning orasinda turpaqni balchiq qilib, Odamning suratini yasab yotg'uzdilar, bir necha yillar o'tgandin so'ng Xudoysi taolo anga jon berdi va ming yil dunyoda turdi. Odam demaklik arab tili turur, arab terini odam der, har nimarsaning toshini teri derlar, farishtalar turpaqni yerni qazib, ichindin olmadilar toshindin olib, (8-bet) Odamning suratini yasadilar, aning uchun odam tedilar anlarning behishtg'a borg'anlari va andin chiqqanlari va yer yuzinda yurganlarining hikoyatlari xalq ichinda mashhur turur, aning uchun aytmaduq. Odam o'lar bo'ldi ersa, Shis otli o'g'liga aytidi kim, mendin so'ng, sen mening o'rno'mg'a o'lтурub o'g'lonlarimg'a bosh bo'lg'il, teb ko'p nasihatlar qildi. Bu dunyodin ul dunyog'a ketdi. Andin so'ng Jabroil alayhissalom Xudoysi taolodin Shisga kitob olib keldi. Shis ham payg'ambar va ham podshoh bo'lub, elga adolat qilib, to'quz yuz o'n ikki yil bu dunyoda turub, jannat saroyig'a ketdi. Shisning ma'nisi Xudoyning haybati demak bo'lur. Shis o'lar vaqtida o'g'li Anushni o'rninda o'lurtub ketdi. Anush taqi otasi va ulug' otasining shari'atig'a amal qilib ul taqi otasitek to'qqoz yuz o'n ikki yil bu manzilda o'turub, ul manzilga ketdi. Anushning ma'nisi sodiq temak bo'lur. Anush taqi o'larinda o'g'li Qaynanni o'rninda o'lurtub, ko'p nasihat va vasiyat qildi. Ul taqi sekiz yuz qirq yil otasi yurgan yo'lda turub, o'g'li Maxloyilni o'z yerinda o'lurtub, Tangri yaqinig'a ketdi. Maxloyil zamoninda Odam farzandi ko'p bo'ldi, o'lurtug'an yerga sig'ishmadilar, ul sababdin Maxloyil Bobil iqlimiga borib bir shahar soldi, otini Sus qo'ysi va tom, ev soldi va kendlar qildurdil, andin ilgari shahar va kend va ev yo'q erdi, tog'larning qavoqinda va yo changalda (9-bet) o'lтурur erdilar, xalqg'a hukm qildi, yer yuziga yoyiling teb, barcha Odam farzandlari Maxloyilniig amri birlan borib, har qayda munosib yer bo'lsa, kendlar soldilar. Maxloyil to'quz yuz yigirma yil so'zlayturg'an shaharda turub, o'g'li Bardni o'z yerinda o'lurtub, dam urmas shahriga ketdi.

Bard taqi to'quz yuz oltmish yil bu yurtda o'lтурub, o'g'li Axnuni ortinda qo'yub ko'chmas va qo'nmas yurtg'a ketdi, o'g'lining oti Axnux erdi va laqabi Idris. Xudoysi taolo ani payg'ambar qildi, sakson ikki yil paygambariq qildi, xalqni to'g'ri yo'lga unladi, andin so'ng Tangrining amri birlan Azroyil kelib Idris alayhissalomni parning ustida qo'yub, behishtga olib bordi. Ul kundin to bu vaktg'acha behishtda turur. Idris behishtga borgandin so'ng o'g'li Matushalax otasi o'rinida o'lтурdi, dod va adl qildi, umrinning soni ma'lum ermas, ul taqi otasi bargin yerga bordi, andin so'ng Matushalaxning o'g'li Limak otasi yerinda o'lтурub, ko'p yillar dod va adl qildi taqi otasi ketgan yo'lg'a tushub ketdi, aning ham umri ma'lum ermas, andin so'ng o'g'li Nuh payg'ambar otasi o'rninda o'lтурdi. Xudoysi taolo ikki yuz ellik yoshig'a yetganda payg'ambarlik berdi, yetti yuz yil xalqni to'g'ri yo'lga undadi, er va xotundin saksan kishi imon kelturdilar, yetti yuz yilning ichinda saksandin ortuq (10-bet) kishi imon kelturmaganiga achig'lanib xalqg'a duoibad qildi. Jabroyil keldi taqi aytidi kim Xudoysi taolo sening duongni qabul qildi, falon vaqtida xalqni suvg'a g'arq qilur bo'ldi, sen kema yasag'il teb, kemani nechik yasarin ko'rsatdi, yerdin suv chiqdn, osmondin yomg'ur yog'di yer yuzindagi jonlining barchasi g'arq bo'ldi. Nuh payg'ambar uch o'g'li va imon kelturg'an saksan kishi birlan kemaga mindi, bir necha oydin so'ng yer Xudoysi taolonning amri birlan suvni o'ziga tortdi, kema Mo'sul tegan shaharning taqi yaqinida Judi tegan tog'din chiqdi, kemadin chiqqan kishilarining barchasi bemor bo'ldilar, Nuh payg'ambar uch o'g'li va uch kelini birlan yaxshi bo'ldilar, andin o'zga kishilarining barchasi o'ldilar, andin so'ng Nuh payg'ambar uch o'g'lining har qaysisin bir yerga yibordi. Xom otli o'g'lini Hindiston yerga yibardi, Som otli o'g'lini Eron zaminga yibardi va Yofas otli o'g'lini qutb shimoli tarafiga yibardi taqi uchiga ham aytidi kim Odam farzandlarindan siz uchungizdin o'zga kishi qolmadil, emdi uchungiz uch yurtda turung, har qachon o'g'lon ushoqingiz ko'p bo'lsa, ul yerlarni yurt qilib o'lтурung tedi. Yofasni ba'zilar payg'ambar erdi deb tururlar va ba'zilar payg'ambar ermas deb turulur. Yoyiq suvining yoqasiga bordi, ikki yuz ellik yil anda turdi taqi vafot bo'ldi, sakkiz o'g'li bor erdi, avlodni bisyor ko'p bo'lub erdi, o'g'lonlarning otlari munlar turur: Turk, Xazar, Saqlab, Rus, Ming, Chin, Kamari (11-bet) Tarix, Yofas o'larinda ulug' o'g'li Turkni o'rninda o'lтур teb o'zga o'g'lonlarig'a aytidikim, Turkni o'zungizga podshoh bilib, aning so'zindin chiqmang tedi, Turkka Yofas o'g'loni teb laqab qo'yidilar, bisyor arablik va oqil kishi erdi, otasindin so'ng yerlarni yurdi va ko'rdi.... taqi bir yerini xushlab, anda o'lтурub, bu kun ul yerini Issig'ko'l derlar, xirgoh (xargah) evni ul chiqardi, turklar ichida kim ba'zi rasmlar (rusumlar) bor andin qoldi, Turkning to'rt o'g'li bor edi, avval Tutak, ikkinchi Chigil, uchunchi Bersachar, to'rtunchi Imlaq (Amlaq). Turk o'lar bo'lg'onida Tutakni o'z o'rnig'a podshoh qilib, uzoq safarg'a ketdi. Tutak aqlli va davlatli, yaxshi podshoh erdi, turk ichinda ko'p rasmlarni ul paydo qildi. Ajam podshohlarining avvali Qayumars birlan ma'asr erdi. Kunlarda bir kun ovga chiqib ko'p o'lтурub, kabob qilib yeb o'lтурub erdi, elkidin bir to'g'ram et yerga tushadi, ani olib yedi ersa, og'zig'a bisyor xush keldi, aning uchun ul yer tuzlaq erdi, oshqa tuz solmaqni ul chiqardi, bu namakin rasm andin qoldi. Ikki yuz qirq yil umrindin o'tgandin so'ng, o'g'li Amulchaxonii o'z yerinda o'lтур deb, Borsa kelmas tegan shaharga ketdi. Amulchaxon taqi ko'p yillar podshohlik qilib, oshlarini oshab va yoshlarni yashab otasi (12-bet) keyindan ketdi, o'lar vaqtinda o'g'li Baqy Debxonni o'rnida o'lurtub. Debning ma'nisi taxning yeri, Baquyning ma'nisi el ulug'i demak bo'lur. Ul taqi ko'p yillar podshohlik qilib, do'stlarning kulganin, dushmanlarning yig'laganin ko'rib, sevinub, andin so'ng o'lar bo'lg'anda o'g'li Ko'kxonni taxtinda o'lтур deb o'ldi. Ul taqi ko'p yillar podshohlik qildi, otasi yo'lindin tashqari chiqmadi, xasta bo'ldi ersa, o'g'li Alinchaxonni o'z yerinda o'lurtub uzoq safarg'a ketdi. Ul taqi ko'p yillar podshohlik qildi, otalarindin viloyatlari, el, uluslari ko'p bo'ldi, aning egiz o'g'li bo'ldi, birining oti Tatar va birining oti Mo'g'ul, otasi qari bo'lg'andin so'ng yurtini ikki bo'lub, ikki o'g'lig'a berib vafot bo'ldi. Alinchaxon o'lgandan so'ng, Tatar va Mo'g'ul har qaysisi o'z yerlарinda podshohliq qildilar, Mo'g'ulxonning to'rt o'g'li bor erdi, avvalg'ining oti Qoraxon, ikkinchi Qo'rxon, uchunchi Qirxon, to'rtunchi Urxon. Mo'g'ulxon(ning) ulug' o'g'li Qoraxonga yurtini berib, barchanering boraturg'an yurtiga ketdi. Qoraxon O'r tog'ini va Ko'r tog'ni yoqlar erdi, bu chaqda ani ulug' tog' va kichik tog' deyturlar, qish bo'lg'anda Sir suvining azaqi va Qoraqum va bursuqni qishlar erdi.

O'g'uzxonning Dunyog'a Kelganining Zikri

Qoraxonning ulug' xotinidin bir o'g'li bo'ldi. Ko'rki oy, kundin ortiq, uch kecha-kunduz onasini emmadi, har kecha ul o'g'lon onasining tushiga kirib aytur erdi: ey, ona musulmon bo'lg'il, agar bo'lmasang, o'lsam o'larmen, sening emchakingni emmasmen teb erdi, onasi o'g'lini qiya bilmadi taqi Tangrining birlikina imon kelturdi va andin so'ng ul o'g'lon emchakni emdi va onasi ko'rgan tushini va musulmon bo'lg'anini kishiga aytmadni taqi yashurdi, aning uchun kim turk xalqi Yofasdin to Alinchaxon zamonig'acha musulmon erdilar. Alinchaxon podshoh bo'lg'andin so'ng xalqning boshi va moli ko'p bo'ldi, davlatga esirdilar taqi Tangrini unutdilar va barcha el kofir bo'ldilar va Qoraxon zamonida kofirlikda andag' mahkam erdilar kim, agar otasi musulmon bo'lg'anin eshidsa o'g'li o'lturur erdi va o'g'lining musulmon bo'lg'onin eshidsa otasi o'lturur erdi, ul chaqda mo'g'ulning rasmi andag' erdikim to o'g'lon bir yoshga yetmagincha ang'a ot qo'ymaslar erdi, o'g'lon bir yoshg'a yetdi erta, Qoraxon elga savun soldi taqi ulug' to'y qildi, to'y kuni o'g'lomni ma'raka ichiga kelturub Qoraxon beklarga aytdi: bizning bu o'g'limiz bir yoshig'a yetdi, emdi mung'a na ot quyursiz teb, beklar javob bermasdin burun o'g'lon aytdi: menin otim O'g'uz turur teb, o'shal bir yoshar o'g'lon anda ravon kelib (14-bet) tilga, tedi: bilinglar ayon, otim turur O'g'uz, Xisrov nomvar, bilinglar yaqin barcha ahli hunar, to'yg'a kelgan ulug' va kichik barcha o'g'lonning bu so'ziga tong qoldilar taqi aytdilar kim bu o'g'lonning o'zi otini aytur, mundin yaxshi ot bo'lurmee teb, otini O'g'uz qo'ydilar taqi aytdilar kim bir yoshar o'g'lonning mundaq so'zlaganini hech zamonda hech kim eshitgan va ko'rgan yo'q turur teb ani irim etib aytdilar, kim bu uzoq umrli va ulug' davlatli uchi (avji) o'zag'an va yoni yonlag'an bo'lg'usi turur tedilar. O'g'uzxonning tili chiqib yurganinda ollo-ollo teb hamisha aytur erdi, ani har kim eshidsa, ayturlar erdi, o'g'lon turur, tili kelmaslikindin ne ayturin bilmay turur derlar erdi, aning uchun kim lafz ollo arab tili turur, mo'g'ulining hech otasi arab tilini eshitgan ermas, O'g'uzni Xudoy taolo modarzod valiy yaratib erdi, aning uchun ko'nglina va tilina o'zining otini solaturur erdi.

Chun O'g'uz yigit yetishdi erta, Qoraxon inisi Qo'rxonning qizini olib berdi, O'g'uz kishi yo'qda, qizg'a aytdi: olamni, seni, bizni yaratg'an bor, aning oti ollo turur, ani bor bilgil va bir bilgil, aning buyurg'anindin o'zga ishni qilmaqil tedi erta, qiz ani qabul qilmadi, shul zamon qo'pdi taqi qizdin boshqa yotdi, kechalar boshqa yotib, kunduz so'zlashmas erdi, bir necha vaqtin so'ng Qoraxonga aytdilar o'g'lingiz ko'chini sevmay turur, sevmaslikindin olg'an kunindin beri bir yerda yotmay turur tedilar erta, Qoraxon bu so'zni eshitgandin so'ng (15-bet) taqi bir inisi Qirxonning qizini olib berdi, ang'a ham imon arz qil tedi. Ul qiz ham qabul qilmadi, aning birlan ham bir yerda yotmadni, voqiatdin bir necha yillar o'tgandin so'ng, O'g'uzxon ovg'a chiqib, qaytib kela erdi, ko'rki kim suvning yoqasinda bir necha za'ifalar kir yuva tururlar, otasining inisi Urxonning qizi munlarning ichinda o'lturub turur, qizg'a kishi yibarib so'z so'zlashmakka sirim oshkora bo'lur teb qo'rqtin taqi qizni go'shaga chorlab, ont berib, aytdi kim, otam manqa ikki qiz olib berdi. Anlarni sevmaganimning sababi bu kim men musulmon, anlar kofir, harchand musulmon bo'lung tedi, qabul qilmadilar, agar sen musulmon bo'lsang erdi, seni olur erdim tedi erta, qiz sen ne yo'lida bo'lsang men shul bo'layin tedi, andin so'ng O'g'uzxon otasig'a aytdi, otasi Urxonning qizini ulug' to'y qilib O'g'uzga olib berdi, Ul qiz musulmon bo'ldi, O'g'uz ani qo'p sevar erdi. Mundin ko'p yillar o'tdi, bir kun O'g'uz yiroq yerga ovg'a keldi, Qoraxon barcha ko'chlari va kelinlarin chaqirib erdi, taqi so'zlashib o'lturg'anda xotunindin so'rdi kim muning sababi ne turur, O'g'uz so'ngi olg'an xotunini sevar va burung'i olg'an ikki xotunning qatig'a hech bormas, xotun aytdi, men bilmayman, kelinlar yaxshirak bilurlar tedi, xon kelinlardan so'rdi erta, ulug' kelin aytdi, o'g'lungiz musulmon bo'lub turur, biz ikkimizga musulmon bo'l tedi, qabul qilmaduq, kichik keliningiz (16-bet) musulmon bo'lub turur, aning uchun o'g'lungiz ani ko'p seva turur tedi. Qoraxon bu so'zni eshitgandin so'ng beklarin chaqirib kengashti taqi so'zni munga qo'ydilar kim O'g'uzni ovda yurganda tutub o'lturgaylar, Qoraxon elga kishi yibardi, tez kelsunlar, ovg'a chiqaman teb, bu so'zni O'g'uzxonning kichik xotuni eshitib, Qoraxonning qilg'an kengashlarining barchasin aytib, O'g'uzxon'a kishi yibardi, O'g'uzxon taqi bu so'zni eshitgandin so'ng, elga kishilar yibardi, otam cherik tortib, meni o'lturgali kela turur, meni tegan, menga keling, otamni tegan otamga boring deb, elning ko'pi Qoraxong'a bordi, ozraqi O'g'uzxon qatig'a bordilar. Qoraxonning inilarining ko'p o'g'lonlari bor erdi, anlarni Qoraxondin ayrilur teb, hech kimning ko'nglina kelmas erdi, anlarning barchalari O'g'uzxon qatiga keldilar, O'g'uzxon anlarg'a uyg'ur ot qo'ydilar, uyg'ur turk tili turur, ma'nisi barchag'a ma'lum turur, yopishg'ur ma'nisina turur, ayturlar sut uydi, sut erkaninda biri birindin ayrilur erdi, qatiq bo'lg'anidin so'ng biri biriga yopisha turur, bu taqi ayturlar kim imomg'a uydym, imom o'ltursa o'ltura turur, tursa tura turur. Bas yopishqani bo'lmasmu? Anlar kelib O'g'uzxonning etakina ikki qo'llari birlan mahkam yopishdilar erta, xon anlarg'a uyg'ur tedi, yopishqur temak bo'lur. Qoraxon birlan O'g'uzxon (17-bet) ikkisi saf tortib urushtilar, Xudoyi taolo O'g'uzxonni g'olib qildi, Qoraxon qochti, urushda Qoraxonning boshina o'q tegdi kim otg'anin bilmadilar, Qoraxon ul yaradin o'ldi. O'g'uzxon otasi taxtinda o'lturdi.

O'g'uzxonning Xon Bo'lg'anining Zikri

O'g'uzxon elning barchasini musulmonliqg'a da'vat qildi, musulmon bo'lg'anlarni siyladi va bo'limg'anlarni chopti, o'zlarini o'lturdi, o'g'lonlarini asir qildi, ul vaqtda Qoraxong'a ta'alluq eldin boshqa ellar ko'p erdi, har ulug' elning bir boshqa podshohi bor erdi, kichik ellar anlarg'a qo'shulur erdi, Qoraxonning musulmon bo'lg'an ellari O'g'uzxon qo'shuldi, O'g'uzxon har yilda mo'g'ul yurtida o'lturg'an ellar birlan urushur erdi g'olib kelur erdi, axir barchasini oldi va qochib qurtulg'anlari tatar xonina borib sig'indilar, tatar xalqi ul vaqtda churchitg'a yaqin o'ltururlar yerdii, churchit tegan bir ulug' yurt turur, shaharlari va kendlari ko'p. Xitoyning temur qazuq tarafinda bo'lur, hindi va tojik ani Chin mochin terlar. O'g'uzxon borib tatarni chopti, tatar xoni ko'p cherik birlan kelib urushdi. O'g'uzxon bosti taqi lashkarini qirdi, O'g'uzxonning lashkarining qol'ina o'ljali o'luk mol tushdi kim yuklamakka kulik ozliq qildi, bir yaxshi chebar kishi bor erdi, ul fikr qilib arabani yasadni, andin ko'rmaqcha barcha araba yasab, (18-bet) o'ljalarini yuklab qaytdilar, arabag'a qaniq ot qo'ydilar andin ilgari anida yo'q erdi, o'zida yo'q erdi, aning uchun qaniq tedilar, kim yuruganda qaniq qilib ovoz qilur, ani yasag'an kishini qaniqli tedilar. Barcha qaniqli eli ul kishining o'g'lonlari turur. O'g'uzxon yetmish ikki yilg'acha mo'g'ul va tatar o'z so'ngaki (sing'aki) erdi, anlar birlan urushdi yetmish uch yil bo'lg'anda barchasini o'z og'zig'a baqturub, musulmon qildi. Andin so'ng yurub Xitoyni oldi va churchitni oldi va taqi tayaqutni oldi, tanqutni tojiklar tibet derlar, andin so'ng borib qoraxitoyni oldi, ul ham ulug' yurt bo'lur, kishisining charasi (chehrasi) hindu teg qora bo'lur, Hindiston birlan Xitoyning orasinda mihit tengizning yodosinda bo'lur, tanqutning qish(i) bo'lg'anda kun tug'ushi va yoy bo'lg'anda tushlukinda bo'lur, Xitoyning nari yuzinda, tengiz yodosinda berk tog'larning ichinda ko'p yel bor erdi, aning podshohining otini Itbaraqxon derlar erdi, aning ustina otlanib bordi, urushdilar. Itbaraqxon g'olib keldi, O'g'uzxon qochti, urushqan yerining beri yuzinda oqib boraturg'an ikki ulug' suv bor erdi, ul ikki suvning orasinda bir necha kun turub qochqin lashning oldin ortin yig'di, ulug' podshohlarning odatlari turur uzoq safarg'a borg'anda ko'chlari olib bormoq navkar xalqining ham ba'zilari olib borurlar, O'g'uzxonning bir begi ko'chin (19-bet) olib borib erdi, o'zi urushda o'ldi, xotuni qurtulub ikki suvning orasinda xon keylidin yetdi, yukli erdi, to'lg'ag'i tutdi, kun savuq erdi, kirmakka ev yo'q, bir chirik og'ach ichinda o'g'lon tug'urdi,

muna xong'a ma'lum qildilar ersa, xon aytdi: muning otasi bizning oldimizda o'ldi, g'amxo'ri yo'q teb o'g'il o'qindi, otini qipchoq qo'ydi, qadim turk tilinda, ichi quvish (qo'y mish), og'achin qipchak derlar erkandurlar aning uchun ul o'g'lon ohach ichinda tug'di teb, otini Qipchaq qo'ydilar, bu vaqtida ichi ko'vish (nov) ohachni chipchaq dey tururlar, qora xalqning tili kelmasligidin qofni chim (ch) o'quy turur, shul qipchoq turur, chipchaq deytururlar, ul o'g'lonni xon o'z qo'linda saqladi, yigit bo'lgandin so'ng o'russ va o'laq va majar va boshqird ellari yohi erdilar. Qipchaqha ko'p el va navkar berib, ul yoqqa Tin va (Atil) Itil suvining yoqasiga yibardi, uch yuz yil Qipchaq ul yerlarda podshohliq kilib o'turdi, barcha qipchaq eli aning naslidin tururlar.

O'g'uzxonning zamonindin to Chingizzon zamonigacha Tin va Itil va Yoyiq bu uch suvning yoqasida qipchaqdin o'zga el yo'q erdi, to'rt ming yilg'acha ul yerlarda o'lturdilar, aning uchun ul yerlarni Dashti Qipchaq derlar. Chingizzon Eron va Turon ustina kelganda bu yurtlarning podshohi sulton Muhammad Xorazmshrh tegan erdi, aning poytaxti Urganch erdi. Chingizzon birlan urusha bilmay qochib Mozandaron ketdi. Chingizzon Buxoro va Samarqand va Toshkendni olib Iroq va Gilon (20-bet) va Mozandaron va Ozarboyjon va Gurjistong'a Jeba no'yon, Subiday Bahodir tegan ikki begini bosh qilib o'ttuz ming kishi birlan yibordi, kichik o'g'li Tuluxonni ellik ming kishi birlan Xurosong'a yibardi. Sulton Muhammad Xorazmshohning poytaxti va navkari va xazinaning turgan yeri turur teb, ulug' o'g'li Jo'jixon va ikkinchi o'g'li Chig'atoxyon va uchinchi o'g'li O'qtoy (O'gaday) xon bu uchisini sakson ming kishi birlan Urganchga yibardi. Urganchda podshoh yo'q erdi, sultonlar dunyo va dini uchun sakkiz oy shaharga qabalib urushdilar, to'qquzinchi oyda Chingizzonning o'g'lonlari shaharni oldilar taqi xalqni qatlom qilib Chig'atox birlan O'qtoy (O'gadoy) qaytib Termizda otasi xizmatig'a bordi, Jo'ji o'zina ta'alluq navkari birlan Urganchdin Dashti qipchaqqa bordi. Qipchaq xalqi yig'ilib urushdilar, Jo'jixon basti taqi qipchaqning qo'lg'a tushganin o'lturdilar, qurtulg'ani ishtakg'a bordi, ishtakning ko'pragi bu vaqtida shu qipchaqning naslindin turur, Atil (Itil) birlan Tin suvining orasinda o'lturg'an qipchoqlar to'rt tarafga qochib ketdilar, ko'pragi cherkas va tuman yurtiga bordilar. Jo'jixon qipchaqning o'g'lon ushag'in o'lja qilib, qipchaq yurtinda o'lturdi, mo'g'uldin evini va otasi bergen ellarning barchasin kelturdi, o'zbakning har urug'indin qipchaq yurtiga kuchub keldilar, andin so'ng, Jo'jixon o'ldi va yurt o'g'li Sayin xong'a qoldi, Jo'jixon o'g'lonlarindan yigirma to'rt kishi ul yurtda podshohlik qildilar, aning zamaninda ul yurtni Sayinxon yurti derlar erdi, andin so'ng, ul yurt mang'itg'a tushdi, onlarning avvali oq mang'itli (21-bet) Qatliq-qayolining o'g'li Edigay biy tegan erdi, andin so'ng Mang'it yurti tedilar. Tarix ming taqi qirqda orqa tarafdan qalmaq elindin podshohining oti Urluk o'n miig evlik kelib Mang'it yurtinda o'lturdi. Bu kun tarix mingda yetmish birda va sichqan yili turur. Emdi ul yurtni qalmaq yurti dey tururlar, balli bu dunyo bir rabotqa o'xshar, Odam farzandlari karvonga o'xsharlar biri ko'char, biri qo'nar.

O'g'uzxon Itbaraqxong'a bosturg'andin o'n yetti yil so'ng taqi otlanib borib Itbaraqxon birlan urushub, bosib, Itbaraqxonni o'lturub, yurtini olib, musulmon bo'lg'anlariga tegmay qo'yub, Tangrig'a imon kelturmaganlarini o'lturub, o'g'lonlarini asir qilib, qaytib eviga tushdi.

O'g'uzxonning Turon Va Hindistong'a Yurganining Zikri

O'g'uzxon tamom mo'g'ul va tatar elining lashkarini jam' qilib, Talash va Sayramg'a keldi, Toshkend, Samarqand va Buxoro podshohlari saf tortib, urusha bilmadilar, ulug' shaharlarga va mahkam qal'alarg'a berkindilar, O'g'uzxon Sayram va Toshkentni o'zi qabab oldi. Turkiston va Andijonga o'g'lonlarini yibardi, Olti oyda Turkiston birlan Andijonni olib, otasi xizmatig'a keldilar. O'g'uzxon bu aytgilg'an viloyatlarning barchasig'a darug'alar qo'yub, Samarqand sari yurdi taqi Samarqandni olib, darug'a qo'yub Buxorog'a bordi, Buxoroni ham olib darug'a qo'yub, Balx bordi, Balxni ham olib darug'a qo'yub, G'ur viloyatining ustiga yurdi, qish erdi, kunlar yomon sovuq erdi, G'urning tog'larig'a qor ko'p tushub erdi, lashkar halqi yurmakka qiyaldilar, xon hukm qildi kim (22-bet) hech kim mendin qolmasun teb, borib G'urni oldi ersa, yel kelib yoz bo'lidi. Lashkarning sonin oldi, bir necha kishi kam keldi, onlarni so'rdi hech kim bilmadilar. Bir necha kundin so'ng ul kishilar xon xizmatig'a keldilar, xon anlarning ahvolini so'rdi ersa, aytidilar kim bir necha kishi lashkarning so'ngidin kela turur erduk, tog' ichinda bir kecha ulug' qor yog'di, andin so'ng yuriy bilmay, o'shal yerda yottuk, otlarimiz va tevalarimiz barchasi o'ldi, bahor bo'lg'andin so'ng piyoda kela tururmiz tedilar, xon hukm qildi: ul jamo'atga qarliq desunlar teb, barcha qarliq eli anlarning naslindin turur, andin o'tub, Kobul va G'aznaynni oldi, andin so'ng Kashmir ustiga yurdi, ul chaqda Kashmirning podshohiniig oti Yog'mo erdi, Kashmirning mahkam tog'lari ulug' suvlari ko'p bo'lur. Yog'mo anga orqa berib, O'g'uzxon'a boqinmadni, bir yil urushtilar ikki tarafdin ko'p kishilar o'ldi, oqibat Zg'uzxon Kashmirni oldi taqi Yog'moni o'lturdi, lashkarini qatlom qildi, bir necha vaqt anda turub, qaytib Badaxshon usti birlan Samarqand keldi, andin Mo'g'ilistong'a borib evig'a tushdi.

O'g'uzxonning Eron Va Shom Va Misr Sari Yurganining Zikri

Bir yil yurtinda turub, ikkinchi yil (23-bet) elga jar (char) qildurdi, "Eron sari yurub tururmen, necha yilliq g'amlarin yesunlar", teb ikkinchi yili otlandi taqi Talash shahrig'a keldi, xonning lashkari keyinida qo'yg'an kishilarini bor erdi arig'an va ochg'an va adashg'an va tekkanni olib kelsun teb, ul kishilar lashkar so'nginda qalg'an bir evlik kishini xon oldig'a olib keldilar, xon ul kishidin so'rdi kim ne uchun keyin qolib erding teb, ul aytdi: kunlikimning ozliqindin lashkarning so'ngindin kela turur erdum, xotunum homila erdi, tug'urdi, ochliq sababindin onasining suti o'g'long'a yetishmadi, kela turur erdim suvning yoqosinda ko'rдумki bir shag'al bir qirg'avulni oldi, og'och birlan shag'alni urdum ersa, qirg'avulni tashlab qochti, ani olib, kabob qilib xotunumg'a berib turub erdim, so'ngda qo'yg'an kishilaringiz yo'luqub olib keldilar, xon qaqqirg'a ot va oziqva mol berib bu cherikka bormag'il teb, qol och tedi, barcha qoloch eli shul kishining naslindin tururlar, bu vaqtida xalach dey tururlar, Mavoruannahrda ko'p turur, aymaq elina qo'shila tururlar, Xuroson va Iroqda ham ko'p bo'lur, onlar chig'atox elina qo'shula tururlar. Balxga ta'alluq G'ur tegan shaharda o'lturg'an qolochlardan oti Muhammad, laqabi Baxtiyor bir pahlavon yigit bor erdi Hindustonning Dehli tegan shahrinda Qutbiddin (24-bet) oti bir musulmon podshoh bor erdi, Muhammad borib ong'a navkar bo'lidi, bir necha yildin so'ng, ulug' bek o'ldi, Hinduston tegan bo'lak-bo'lak ko'p yurt bo'lur, Bihor oti bir yurt bo'lur, Kashmir yaqininda bo'lur, Kutbiddin Muhammad Baxtiyorni ilg'orboshi qilib, ong'a yibardi, Muhammad Baxtiyor Bihor yurtini oldi. Bihorning oftob chiqarinda taqi bir yurt bor erdi, aning ulug' shahrining oti Lakshir erdi, aning to'qson yoshor podshohi bor erdi, ota otadin ul yurtning podshohi erdi, borib, ul yurtni oldi, necha yillardan beri yig'ishturg'an xazinasini qo'lina tushdi, Lakshirning temur qazuq tarafindan bir ulug' shahar bor erdi Laktuni otliq, borib ani taqi oldi va xutbani o'z otiga o'qutub va sakkani o'z otiga suqturub, Laktuni shahrini poytaxt qilib o'lturdi. Qoloch elindin o'n ming kishi aning qatig'a yig'ildilar, Laktuni birlan Tibetning orasinda otliq kishi bir yotib bora turgan yer bo'lur, ammo bir baland tog'i bo'lur, bir yo'l bo'lur, bir otliq yurur, ikki otliq yonashib yuriy bilmas, Muhammad Baxtiyor o'n ming otliq va o'ttuz ming piyoda birlan o'shul yo'ldin borib Tibetni chopib keldi, taqi bir necha kundin so'ng vafot bo'lidi, barcha qoloch xalqi yig'ilib, Shiran teganni podshoh qildilar, ul o'lgandin so'ng, Mardon teganni

(25-bet) podshoh qildilar va Mardon yildam va otquchi yigit erdi, ammo hech aqli yo'q erdi, bu g'oyatda kim bir kun ko'rinishda o'lthurg'anda beklarina boqib aytdi, Isfihonni, falonni senga berdim.

Qazminni senga berdim, shundaq teb, Xuroson va Iroq va Rumning ancha bila turg'an shaharlarining bir bor otlarin tutub, navkarlarina ulashturdi, Tangrim bersa sizlarga berayim temadi, mundaq tesa, bo'lmas erdi, mening viloyatlarim turur, sizlarga berdim teb, ta'zim qildurdi va bir kun kelib yuknib aytdi kim savdogarmen, bu kecha ming tangamni o'g'ri olib turur tedi taqi devonga hukm bitib tedi, devon Isfihonning darug'aliquini savdogarning otig'a bitib, muhr qilib qo'lig'a berdi. Savdogar qo'rqqanindin so'z ayta bilmay yorliqni olib, boshig'a sanchdi, ko'rnishda o'lting'an xalq ham qo'rquinchdan hech nimarsa ayta bilmadilar, bir oqilbegi bor erdi, ul aytdi: podshohim mung'a Isfihonning darug'aliquin berdingiz, bu kishi agar mundin Isfihonga yolg'uz borsa, sizning otingizg'a yomon bo'lur, bu kishiga ul chaqli nimarsa beringiz kim qo'shli va navkarli bo'lub borg'ay tedi, ul badbaxtning ko'ngliga bu so'z yaxshi kelib, yuz ming tanga in'om va taqi bir yomonligi bu kim qoloch halqining yaxshi kishilarini begunoh o'lutura boshladgi, el yaxshilari yig'ilib, kengash qilib, Mardonni o'lturnub Avaz teganni (26-bet) Laktuni taxtinda o'lturntdilar, ul ham o'n ikki yildin so'ng o'ldi, andin so'ng, ul yurt qolochlarning qo'lindin chiqdi, o'zga kishiga tushdi, andin so'ng, qolochlar navkar bo'ldilar, qolochlarning podshohlig'i avvalidin to oxirig'acha ellik to'rt yil bo'ldi. Emdi qolochlarga bo'lub, aytaturg'an so'zimizni qo'y'ali muchaqliq aytduk (etduk), yetar. O'g'uzxon Talashdin o'tub Samarqand va Buxorog'a kelib, Amu suvidin o'tub, Xurosong'a bordi, ul chaqda Eron yurtinda yaxshi podshoh yo'q erdi, Qayumars o'lub erdi, Ho'shangni hanuz podshoh ko'tarmay turur erdilar, andaq vaqtin arab mulukut tavoif ter, ma'nisi bu kim har bir to'p elda bir to'ra temak bo'lur. Turklar bo'lur. Turklar andaq vaqtin ev boshig'a qoraxon derlar, ma'nisi har evda qora kishi bir xon bo'lib turur, har evga bir xon temak bo'lur, ul chaqda Eron yurti shundaq erdi, Xurosonin oldi, andin o'tub Iroqi ajam va Iroqi arab va arman va Shom va Misrg'acha oldi, bu aytig'an viloyatlarning bir nechasini urushib va barchasini boqindurib, o'ziga ta'alluq qildi. O'g'uzxon Shom viloyatinda turg'anda pinhoniy bir navkarining qo'liga bir oltun yoy va uch o'qni berdi taqi aytdi yoyni kun tug'ishinda bir cho'lda kishi ayog'i yetmas yerda turpaqqa ko'mub bir uchini chiqarib qo'y'il va o'qlar kun botishi tarafiga eltilib, yoyni nechuk qo'ysang ani shundog' qo'y'il tedi, ul kishi yorliqqa amal qilib keldi, bu voq'iadin bir yil (27-bet) o'tgandin so'ng uch ulug' o'g'li Kun va Oy va Yulduzni charlab aytdi: yot yurtg'a kelibmen, ishim ko'p, ov ovlamaqa qo'lum yetishmay turur, kun tug'ishi tarafinda falon cho'lning ovi ko'p ermish teb eshitdim, o'z navkarlarining bilan anda borib, o'tav so'qub kelinglar tedi, andin so'ng uch kichik o'g'li Ko'k va Tog' va Tengiz bu uchusini charlab, aqalarin aytqan so'zni aytib, kun botishi tarafig'a yibardi, bir necha kundin so'ng uch ulug' o'g'londari bir oltun yoy birlan ko'p ovni xonadonlarig'a kelturdilar, uch kichik o'g'londari taqi uch oltun o'q birlan ko'p ovni kelturdilar, ul ovning etlarina ko'p etlar va turduk oshlarni qo'shub, xalqni chaqirib yoyning va o'qning topilg'anini irim qilib, o'zlariga qayta berdi, uch ulug' o'g'li yoyni sindirib olishdilar uch kichik o'g'li har qaysi bir o'qni oldilar, olg'an viloyatlarda ko'p yillar turub, dushmanlarini yo'q qilib, do'stlarini siylab, boshi Sayram ayog'i Misrg'acha olg'an viloyatlarning barchasina hokimlar qo'yub, qaytib, o'z yurtig'a tushdi.

O'g'uzxonning Yurtina Kelib To'y Qilg'anining Zikri

O'g'londarim xalqim birlan eson omon borib keldim teb, ulur to'y yorog'in qilsb, bir xirgoh yasatturdi, barcha og'ochlarining toshina oltun qopladi, la'l va yoqut va zumrud va feruza va dur birlan murassa' qildurdi, bu baytni ul evning vasfinda aytib tururlar, bayt:

Bir ev tiki oltundin ul shahriyor,
Kim ul ev falak evindin qildi or.

To'qquz ming qo'y va to'qquz yuz yilqi o'lturntdi, bulg'ardin to'qson to'qquz hovuz qildirdi, to'qquzig'a araq va to'xsonig'a qimiz to'lturntdi, barcha navkarlarini chaqirib kelturdidi, ul olti o'g'lig'a ko'p nasihatlar aytib (etib) va beklar o'rgatib yurtlar va shaharlar va ellar va in'omlar berdi. Bu baytlarni aning vasfinda aytib turur:

She'r:

O'g'uz qildi ul to'yda chirg'amishi,
Bu olti o'g'ulni suyurg'amishi.
Bular ko'rsatib erli mardonlik,
Ota birlan ko'p turli fazonaliq
Otag'a (onlar) bas qildilar yorliq,
Urush kun(larin)da barchasi borliq.

Andin so'ng barcha navkarlarining otqan va chopqan va qilg'an xizmatlarig'a loyiq shaharlar va sarhadlar va kendlar va in'omlar berdi taqi o'g'londarig'a aytdi: siz uch ulug'ingiz oltun yoyni topib kelturdiningiz taqi ani bo'zub ulashtingiz, sizlarning otingiz Buzuq bo'lsun, sizlardin bo'lgan o'g'londarni ham to qiyomatg'acha Buzuq tesunlar. Uch o'q kelturgan uch kichik o'g'lini va andin bo'lgnarlarni bu kundin to dunyo oxir bo'lg'uncha uch o'q tesunlar yoy va o'qni ki topib kelturdiningizlar ul kishidin bo'lindi va Tangridin bo'ldi: bizdin burun o'tgan xalqlar yoyni podshoh o'minda bilib tururlar, o'qni elchi yerinda, aning uchun kim yoy o'qni qaysi tarafg'a tortib yibarsa, o'q anqa borur. Emdi men o'lgandin so'ng Kunxon mening taxtimda o'lturnsun, andin so'ng Buzuq naslindin har kim qobil bo'lsa, xalq ani podshoh (29-bet) qilsunlar, dunyo oxir bo'lg'uncha Buzuqning bir yaxshisi podshoh bo'lsin, o'zgalari o'ngda o'lturnsunlar, uch o'qlar so'l bo'lsunlar, zvning so'l tarafinda o'lturnsunlar va dunyo oxir bo'lg'uncha navkarligiga rozi bo'lsunlar, teb aytdi va yuz taqi o'n olti yil podshohlik qilib, haq rahmatig'a bordi.

O'g'uzxonning Ulug' O'g'li Kunxonning Podshohliqining Zikri

O'g'uzxonning uyg'ur teb ot qo'y'ani jamoatning ulug'i va oqsoqolining o'g'li bor erdi. Arqil xo'ja otliq, O'g'uzxon otass taxtinda o'lturnub to o'lguncha vazir vakili ul erdi, oqil va donishli va ko'p biligli kishi erdi va Kunxon taqi ani vazir qilib, to o'zi o'lguncha aning so'zina amal qilur erdi, Arqil xo'ja uzoq umr topdi, kunlarda bir kun xon yolg'uz o'lturng'anda aytdi: otang yuzda o'n olti yil yozning issig'inda soyada o'lturnmay va qishning sovuqinda evda o'lturnmay qilich urub ko'p yurtlarni ochib siz oltingizg'a qo'yub

ketdi, agar siz oltingizning va sizlardin bo'lg'anlar barchangizning og'zingiz bir bo'lса, uzoq yillar va ko'p kunlar bu yurtlar qo'lingizdan chiqmas, agar og'zilaringiz bir bo'lmasa, o'lja yurtingizda ketar va boyiri yurtingizda ketar va molingiz, joningizda ketar tedi. Kunxon aytdi: otamg'a kengash beraturg'an erding'iz, otam o'rning'a emdi tamsiz, siz ne ishni o'xshatsangiz, men ani qilayin, tedi ersa, Arqil xo'ja aytdi: O'g'uzxonning o'n yurtlar va shaharlar va ellar va o'luk mollar va tirik mollar qolib turur, siz olti o'g'ulning har biringizdin (30-bet) to'rt o'g'ul bo'lub, barchasi yigirma to'rt podshohzoda bo'lub, siz oltingizdin boshqa va men andin qo'rqa turmen, dunyoliq uchun og'izlaringiz ola bo'lur teb, Kunxon Arqil xo'janing so'zini qabul qilib, ulug' qurultoy qildi, yaxshi va yomon xalqning barchasi kelgandin so'ng ul O'g'uzxonning qolgan viloyatlar va ellar va o'luk mollarning va tirik mollarii garchasini bu aytilgan o'ttuz podshohzodalarining ulug'ina ulug'cha va kichkina kichikcha berdi, bu yigirma to'rt o'g'ul odmi xotunlardan bo'lgan erdi, munlardin o'zga qumalardin bo'lg'an ham o'g'lolnlar ko'p erdi, anlarning ham ahvollarig'a loyiq nimarsalar berdilar, andin so'ng O'g'uzxon qildurg'an oltun evni tikturdi, o'ng yoqda olti oq o'rga va so'l yoqda olti oq o'rga tikturdi va taqi o'ng yoqda boshina oltun taquq berkitgan qirq quloch og'achni tikturdi va so'l yoqda boshina kumush taquq berkitgan qirq quloch og'achni tikturdi va taqi xon yorliqi birlan buzuq o'g'lolnlar, navkarlari birlan oltun taquqni uch o'q o'g'lolnlar navkarlari birlan kumish taquqni ot birlan chopin otdilar, taquqlarni urg'on kishilarg'a ko'p in'omlar berdi. Kunxon otasining qilg'anig'a amal qilib, to'qquz yuz yilqi va to'qquz ming qo'y o'lтурди va to'qquz bulg'ar hovuzg'a araq to'lтурди va to'xson bulg'ar hovuzg'a qimiz soldurtdi, qirq kecha va kunduz aysh-ishrat qildilar.

O'g'uzxonning O'g'lolnlar Va Nabiralarining Otlarining Zikri

Emdi anlar ichib yey tursunlar, biz O'g'uzxonning etakindin yoyilg'an o'g'lolnarning otlarini aytaling: avval ham aytib erduk, andaq ham bo'lса, o'g'lolnlarin va nabiralarin va barchalarin bir yerda aytmaqni munosib ko'rduk. O'g'uzxonning ulug' o'g'lining oti Kunxon va andin kichikining oti Oyxon va andin kichikining oti Yulduzxon va andin kichikining oti Ko'kxon va andin kichikining oti Tog'xon va andin kichikining oti Tengizzon, bu oltisining har qaysisining admi xotunlaridin bo'lg'an to'rt o'g'li bor erdi. Kunxonning ulug' o'g'lining oti Qayi va ikkinchi Bayot va uchunchi Alqa evli va to'rtunchi Qora evli. Oyxonning ulug' o'g'lining oti Yozir va ikkinchi Yosir va uchunchi Dudarg'a va to'rtunchi Dukar. Yulduzxonning ulug' o'g'lining oti Avshar va ikkinchi Qiziq va uchunchi Bekdili va to'rtunchi Qarqin. Ko'kxonning ulug' o'g'lining oti Bayondur va ikkinchi Bajna va uchunchi Chavildur va to'rtunchi Chepni. Tog'xonning ulug' o'g'lining oti Salur va ikkinchi Aymir va uchunchi Ola yo'ntli va to'rtunchi Uragir. Tengizzonning ulug' o'g'lining oti Igdir va ikkinchi Bukduz (Bekidez), (Bekduz) va uchunchi Ava (Iva) va to'rtunchi Qiniq, O'g'uzxonning bu olti o'g'lining qumadin bo'lg'an o'g'lolnarning otlarini aytaling, ammo qaysi o'g'lindin bo'lgani ma'lum ermas: Kena-kuna turbatli, Kerayli, Sultonli, O'qli, Ko'kli, Suchli, Xurosonli, Yurtchi, Jomchi, Turmachi, Ko'mi (Ko'mchi), Surqi. (32-bet). Bu vaqtida ani Surxi deyturlar, Qurchik, Suvarchik, Qazg'urt, Qirg'iz, Takan (Taka), Lola, Murdasho'y, Sayir. Emdu bir necha ells kim O'g'uzxon onlarga ot qo'yub ayduq. O'g'uzxon naslindin ermaslar, andaq ham bo'lса, shul to'yda bor erdi, ul sababdin otlarini nomada bitiy tururlar, otlari bular turur kim Qaniqli va Qipchaq va Qarliq va Qoloch.

Kunxonning Inilari Va O'g'lolnlarig'a O'run Berganining Zikri

Emdi o'n ikki o'rgada o'lтурub ulush olg'an kim va ul ulushni to'g'rag'on kim, tashqarida otlarin tutub o'lтурug'an kim, onlarni bayon qilaling. Oltun o'rganing to'rinda Kunxon o'lтурdi, barcha el yaxshilari ittifoq qilib, qo'yning boshin va orqasin, quyruqli uchasin va bag'rin uchaning ustinda qo'yub, Kunxonning oldinda qo'ydilar ham kim xon bo'lса, ulushlari bu bo'lsun tedilar, o'rganing ichki eshikinda Arqil xo'ja o'lтурdi, to'shi aning oldinda qo'ydilar taqi ham kim vazir bo'lса, aning ulushi bu bo'lsun tedilar, sog' qo'lда (o'lgi) avval o'rgada Kunxonning ulug' o'g'li Qayinni o'lтурdilar sog' oshiqli ilikni ulush berdilar. Bayot ani to'g'radi, Surqi otlarin tutdi. Bu vaqtida ani Surxi deyturlar. Ikkinci o'rgada Alqa evlini o'lтурdilar, sog' qora yilikli ulush berdilar, Qora evli ani to'g'radi, Lola otlarin (33-bet) tutdi, uchunchi o'rgada Oyxonning ulug' o'g'li Yozirni o'lтурdilar, sog' yonboshni ulush berdilar, Yosir ani to'g'radi, Qo'mi otlarini tutdi. To'rtunchi o'rgada Dudurg'an o'lтурdilar, sog' o'mchani ulush berdilar, Dukir ani to'g'radi, Murdasho'y otlarin tutdi. Besinchchi o'rgada Yulduzxonning ulug' o'g'li Avsharni o'lтурdilar sog' uyluqni ulush berdilar, Qiziq ani to'g'radi, Turumchi otlarin tutdi Oltinchi o'rgada Bekdilini o'lтурdilar sog' yog'rinni ulush berdilar, Qarqin ani to'g'radi, Qorchiq otlarin tutdi, so'l yondagi avvalgi o'rgada Ko'kxonning ulug' o'g'li Bayondurni o'lтурdilar, so'l uyluqni ulush berdilar. Bajna ani to'g'radi. Qazg'urt otlarinn tutdi, Ikkinci o'rgada Chovuldurni o'lтурdilar, so'l yonboshni ulush berdilar. Jabni (Chebni) ani to'g'radi, Qaniqli otlarin tutdi. Uchunchi o'rgada Tog'xonning ulug' o'g'li Solurni o'lтурdilar, so'l ashiqli yillikni ulush berdilar, Aymir ani to'g'radi, Qoloch otlarni tutdi. To'rtunchi o'rgada Ola yo'ntlini o'lтурdilar, so'l umchani ulush berdilar, Uragir ani to'g'radi, Tekan (taka) otlarni tutdi, besinchchi o'rgada Tengizzonning ulug' o'g'li Igdurni o'lтурdilar, so'l qari yilikini ulush berdilar, Bukduz ani to'g'radi, Qorliq otlarin tutdi. Oltinchp o'rgada Avani (Ivani) o'lтурdilar, so'l yog'rinni ulush berdilar. Qiniq ani to'g'radi, Qipchaq otlarin tutdi.

(34-bet) Burung'i o'tgan baxshilari va umri ma'rakada o'tgan yaxshilari andaq aytib tururlar kim Ug'uzxonning olti o'g'linin asl xotunlaridin tuqqan nabiralar, yigirma to'rt kishi erdilar, Kunxon anlarning har ikkisini bir o'rgada o'lтурdi, o'n ikki bo'lak bo'l'dilar, bu o'n ikkisidin tug'qanlarg'a yuzlik tedilar aning uchun kim har nimarsaning yuzi keyindin yaxshi bo'lur, elning va xalqning yuzlarig'a tutqan yuzliklari turur temak bo'lur va taqi ul kim O'g'uzxonning bir necha ot qo'y'an kishilari va qumadin tug'qan nabiralarini munlar ham yigirmi to'rt kishilar bordilar, barchasining otlarini yuqorida bir-bir aytib tururmiz. Bularniig barchasi evning tashqarisinda o'lтурdilar, o'n ikkisi ot tutub o'lтурdi va o'n ikkisi eshikda o'lтурdi, bu yigirma to'rtidin tug'qanlarg'a aymaq tedilar, asli umaq turur, rasm turur kim qora ulusning barchasi so'zni butun ayta bilmas, yorti ayturlar. Ushbu chaqda ham bir kishi bir kishidin so'rsa, elingning umaqi ne turur teb so'rар, umaq mo'g'ul tili turur, bu vaqtida qalmaq ham umaq deb turur, umaqning ma'nisi (35-bet) urug' temak bo'lur. turkmanlarning o'n ikki yuzlik va yigirma to'rt umaq teganlarining ma'nisi bu turur.

O'g'uzxonning Nabiralarining Otlarining Ma'nisi Va Tamg'alari Va Qo'shlarining Zikri

Turkmanning tarix bila turgan biligli qarilarning barilari O'g'uzxonning o'n ikki o'rgada o'lтурган yigirma to'rt nabirasining otlarining ma'nilarini va tamg'alarining nechun erkanin va qo'shlar turg'an qo'shlarining otlarini, mundaq aytib tururlar kim Qayining ma'nisi maxkam temak bo'lur, tamg'asining suvrati bu turur: qushi shunqar; Bayotning ma'nisi davlatli temak bo'lur, tamg'asining suvrati bu turur: qushi uki (ukki); Alqa zvlining ma'nisi muvofiq temak bo'lur. tamg'asining suvrati bu turur: qushi Kuyka-nak; Qora evlining ma'nisi har qayda o'lturnsa xirgoh birlan o'lтургuchi temak bo'lur, tamg'asining suvrati bu turur: qushi ko'bak sari; Yosirning ma'nisi ellar oqasi temak bo'lur, tamg'asining suvrati bu turur: qushi turumtoy; Yosirning ma'nisi oldig'a har nimarsa uchrasa ani yiqrar temak bo'lur, tamg'asining suvrati bu iurur: qushi qarg'u; Dudurg'anining ma'nisi yurt olmaqni va ani

saqlamaqni bilgachi temak bo'lur, tamg'asining suvrati bu turur: qushi qizil qarchig'ay; Dukarning ma'nisi to'sarak (turk) temak bo'lur, tamg'asining suvrati bu turur: qo'shi ko'chgan (ko'chkin); Avsharning ma'nisi ishni yildam ishlaguchi (36-bet) temak bo'lur, tamg'asining suvrati bu turur: qushi chora Lochin; Qiziqning ma'nisi bo'ka temak bo'lur, tamg'asining suvrati bu turur: qushi saricha; Bekdilining ma'nisi so'z hurmatli temak bo'lur, tamg'asining suvrati bu turur: qushi bahri; Qarqinning ma'nisi oshli temak bo'lur, tamg'asining suvrati bu turur: qushi humoy; Salurning ma'nisi qulachli temak bo'lur, tamg'asining suvrati bu turur: qushi Lochin; Bajnaning ma'nisi qilg'uchi temak bo'lur, tamg'asiniig suvrati bu turur: qushi olato'g'anaq; Chavuldundering ma'nisi nomusli temak bo'lur, tamg'asining suvrati bu turur: qushi bug'daynaq; chebni (jebni) ning ma'nisi bahodir temak bo'lur, tamg'asining suvrati bu tururz qushi humoy; Salurning ma'nisi qulachli temak bo'lur, tamg'asining suvrati bu turur: qushi burgut; Aymirning ma'nisi boylarning boyi temak bo'lur, tamg'asining suvrati bu turur: qushi anchari; Ola yo'ntlining ma'nisi ola otli temak bo'lur, tamg'asining suvrati bu turur: beshik teg, qushi yog'albay; Uragirning ma'nisi yaxshi ish qilg'uchi temak bo'lur, tamg'asining suvrati bu turur: qushi bayqu; Igdirning ma'nisi ulug' temak bo'lur, tamg'asining suvrati bu turur: qushi qarchig'ay; Bukdurning ma'nisi xizmatkor temak bo'lur, tamg'asining suvrati bu turur: qushi italg'u; Avaning (Ivaning) ma'nisi martabasi baland temak bo'lur, tamg'asining suvrati, bu turur: qushi tuyg'un; (37-bet) Qo'ninqing ma'nisi aziz temak bo'lur, tamg'asiniig suvrati bu turur: qushi charaqarchig'ay.

O'g'uz Elining Ahd Qilganlarining Zikri

Xon boshliq barcha xalq aytdilar kim bir tavar yo'o'n yo yuz va yo har ne chaqliq oltursangiz umchasini ushbu aytilan teg ulashib olishsunlar taqi har qaysisi o'zining o'g'londari birlan va navkarlari birlan yesunlar va taqi aytdilar kim bir kishi gunohkor bo'lsa, ul kishi podshoh olturg'an yerga yovuq bo'lsa va yo yiraq bo'lsa, ul gunoh qilg'an kishi podshohning urug'indin bo'lsa va yo o'zga urug'din bo'lsa, xonning bir kishisi borib, ani yorg'u qilsa, ancha xonning inisi va o'g'li va beklari hech nimarsa qo'l yopmasunlar va meni teb, kelib turur teb, pushti panoh bo'lub, agar har kim orqa bo'lsalar, ul orqa bo'lg'an kishini podshoh eshikina kelturub, orqasina qilich birlan chopib, ikki bo'lak qilmoq kerak, to ko'rgancha ko'z va eshitgancha qulqoq bo'lg'ay va taqi ul kim O'g'uz naslindin va buzuq o'g'londarin bir kishini podshoh qilg'aylar, ikki kishini ko'tarmagaylar, aning uchun xon bir bo'lsa, el tuzalur va ikki bo'lsa el buzulur, burung'i o'tgan biligililar aytil tururlar kim bir qingga ikki qilich sig'mas va bir xotunni ikki er olib oltura bilmas va bir yurtg'a ikki to'ra sig'mas, bir ulug' kag'azg'a ahdnomha bitib Kunxon boshliq inilari va o'g'ullari va beklari va elning qarilarining yaxshilari va yigitlarining yaxshilari barchalari xatda otlarin bitib ant (38-bet) ichtilar kim to tirikmiz; ushbu aytulg'an so'zlardin qaytmasbiz, agar byzdin bo'lg'an o'g'londar halolzoda bo'lsalar to dunyo oxir bo'lg'uncha bu ahdnomani o'qub amal qilg'aylar, agar haromzoda bo'lub, yurtni buzalni tesalar amal qilmagaylar tedilar taqi otlarin bitib, muhrlarin bosib, ahdnomani Kunxonning xazinasinda qo'yidilar. O'g'uzxon o'lganda Kunxon yetmish yoshar erdi va taqi yetmish yil otasi yerinda olturub dod va adl birlan xonliq qildi va taqi andin so'ng podshohliq qildi haq rahmatig'a ketdi.

Kunxonnig Ulug' O'g'li Qayining Xon Bo'lg'anining Zikri

Kunxon o'lgandin so'ng barcha O'g'uzxonning nabiralari va el yaxshilari yig'ilib Qayini xon ko'tardilar, ul taqi otasi teg elga adolat qilib yigirma uch yil podshohliq qildi, xaq rahmatiga ketdi.

Debbaquyning Xon Bo'lg'anining Zikri

Qayixonning o'g'londari ko'p erdi, bir o'g'lini ulug' otalarining otin qo'yub erdi, ulug', kichik barcha ittifoq birlan Debbaquyni xon ko'tardilar, kunlarda bir kun Debbaquyxon xalqdin so'radikim bu vaqtida O'g'uzxonni ko'rgan kishidin kishi bormu teb, aytdilar bir kishi qolib turur, salur elindin Ulash otli tedilar, xon kishi yibardi, Ulashni kelturub O'g'uzxonning na ish qila turganin va do'stlarg'a ne muruvvat qilib dushmanlarga ne javr madora qila turg'anin bir-bir so'rdi. Ulash ham bilganlarini aytidi, andin so'ng Ulashga ko'p in'omlar berib eviga yibordi (39-bet) va taqi Debbaquyxonning ulug' beklari Yozir elindin, alan va arlan, Dunkar elindin Chekas va Boshibek va Big'ubek (Bayg'ubek) va bayondur elindin Qabul xo'ja erdilar, Xon bir kun ov ovlab yuriy turg'anda atdin yiqilib, yonbosh so'ngaki sindi taqi andin o'ldi. Ko'ziyovi otli o'g'li bor erdi, ani podshoh ko'tardi, o'ttuz yil podshohliq qilib ul dunyog'a ketdi, ammo ul Qo'ziyovi xon bo'lganda ani kengash beklari aymir elindin Ko'runchak erdi, salur elindin Tabaq erdi va taqi salurdin Enkashning o'g'li o'tkan va aning o'g'li Qulsari uch orqa vazir bo'ldilar, yuz yigirma yil xonliq qildi va taqi o'ldi.

O'g'uz Elining Yurtlari Va Anda Necha Yil Va Ne Ravish Birlan O'tirg'anlari Va Turkman Teb Nechuk Ot Qo'yulg'anining Zikri O'g'uzxonin to Qo'ziyovi xongacha nechukki ayttaq, shundaq turur, emdi Inalxonni ayturmiz, Tangrim buyursa Inalxonning zamonindin to biz bu kitobni aytg'an chaqg'acha bir-bir ayturmiz turur, barchasi rost turur, hech g'alati yo'q turur ammo Qo'ziyovixon birlan Inalxonning orasinda necha yil o'tganini jazm eta bilmaymiz, andaq ham bo'lsa oz aytali shoyad aytaks, yolg'on bo'lg'ay, to'rt ming yil bor turur andin (40-bet) bila tururmiz, kim O'g'uzxon Qayumars zamoninda erdi, Inalyovixonning vazir vakili qayi xalqindin Qo'rqt ota erdi, ul bizning payg'ambarimizning onalariiing inisi Abbas avlodining o'g'londari Bag'dod shahrinda besh yuz yil podshohliq qildilar, Qo'rqt anlarning zamonda erdi, Qayumars birlan o'g'londarining orasi besh ming yil turur, Qo'ziyovixon O'g'uzxonning beshlanchi o'g'li turur, bas o'zingiz hisob qiling, Qo'ziyovixon birlan Qo'rqt otaning ----- [1] xoni Inalxonning orasi necha yil bo'lur, emdi biz bu aytulg'an to'rt ming yilda bir-bir va ot-bot kimning bo'lg'anin va kimning bo'limg'anin bilmay tururmiz, muncha-muncha bilmasaq ham boshdin oyoqg'acha suvratini bilaturmiz, ani aytaling, O'g'uz elning yurtlarining kun tug'ushi Issiq ko'l va Olmaliq va qiblasi Sayram va Qazg'urt tog'i va Qorachiq tog'i va temur qazug'i ulug' tog' va kichik tog'ki misning koni bo'lur va kun botishi Sir suvinint ayog'i Yangikent va Qoraqurum, ushbu aytulg'an yersharning ichinda, o'rnida to'rt ming va besh ming yil olturdilar taqi qaysi urug'i ko'p bo'lsa, andin podshoh ko'tardilar, mundaq qayidin bir kishini podshoh ko'tarurlar erdi, qayi urug'i va bayot urug'i va taqi besh, olti oz urug'lar ang'a qo'shilurlar erdi va taqi salurdin bir kishini podshoh ko'tarurlar erdi, salur urug'i va (41-bet) aymir urug'i va taqi bir necha oz urug'lar anga qo'shilur erdi va taqi yozirdin bir kishini podshoh ko'tarurlar erdi, yozir urug'i va taqi bir necha oz urug'lar anga qo'shilurlar erdi mundin qibo qiling, ko'p urug'din podshoh ko'tarib, oz urug'lar anga qo'shilib goh olti, yetti to'p bo'lurlar erdi, goh uch, to'rt to'p bo'lurlar erdi va taqi biri birlan yog'i bo'lub, chopushurlar erdi, asir qilurlar erdi, o'zlarindin ortqan yesirlarni Mavorounnahr bozorganlarina sotarlar erdi, ul vaqtida Iroq va Xurosan va Mavorounnahrning podshohlari va spohiyllari va ra'iyatlari, barchalari tot erdi, totdin o'zga kishi yo'q erdi, sulton Mahmud G'aznaviyining otasi Sebek Tegin qayi xalqindin erdi, o'zini turkmanlar asir qilib, savdogarga sotdilar av taqi bachna (bajna) urug'i ham o'zindan tura ko'tarib solur eli birlai yog'i bo'lub chopishurlar erdi, besh olti orqag'acha bu ikki

elning orasinda dushmanlik bor erdi, bachna eli salur elina g'olib kelur erdi, aning uchun salur eli bachna xalqini it bachna derlar, elining To'ymaduq otlı bir podshohi bor edi, ul qo'shun birlan kelib, salur elini chapib, Salur Qazan alining onasi Chachaqlini o'ljalab ketdi. Uch yildan so'ng kadxudosi Anqash ko'p mol birlan yibarib Chachaqlini qayta oldi. Bu so'zlardin arz ul kim chapqanlarni (42-bet) yurtlarinda o'lthurub, chapilgan elning yovdin qochg'anlari Mavorounnahrga qochib, borurlar erdi va shundoq qilib, bora-bora turkmanning ko'pi viloyatga tushdi, ozi qoldi, ul vaqtida turkmandin narg'i tarafinda olturgan ellar ko'p erdi, aning qaysi birini aytayin, barcha ellardin turkmang'a yaqinraq olturg'an xitoy va qaniqli va nayman erdilar, ul ellar turkmanning qolg'anin chopa boshladilar. Issiqko'l va Olmaliq va Sayram va ulug' va kichik tog'lar bu yurtlarning barchasin tashlab, Sir suvining ayoqina kelib, podshohlarini Yangikentda olturub o'zları Sirning ikki tarafin yoyleb va qishlab o'n orqalari o'tguncha olturdilar va Mavorounnahrga tushgan turkmanlarini tojiklar ul turk derlar erdi, besh, olti orqa o'tgandin so'ng yerga, suvga tortdi taqi chekkalari qisiq va ko'zları ulug' va yuzlari kichik va burunlari ulug' bo'la boshladi, turkman yurtig'a kelib olturg'an ellardin asir va savdogarlar Mavorounnahrga kela boshladilar. Anlarni ko'rdilar taqi tojiklar turk tedilar, burung'i turklarg'a turkmonand teb ot qo'yidilar, aning ma'nisi turkka o'xshash temak bo'lur qora xalq turkmonand teb ayta bilmadi taqi turkman tedilar.

Inalyovining Xon Bo'lg'anining Zikri

Qayi qora xo'janing o'g'li Ko'rqut ota salur Ankash xo'ja va Avashbanxo'ja boshlik barcha O'g'uz eli yig'ilib, qayi xalqindin Inalyovini, podshoh ko'tardilar, vaziri Qo'rqut ota erdi, Qo'rqut ota har nimarsa tesa Inalyovi aning so'zindin chiqmas erdi, Qo'rqut otaning karomatlari ko'p (43-bet) erdi, ikki yuz to'xson besh yil umr topdi, uch podshohga vazir bo'ldi, Inalyovi yetti yil podshohliq qildi, ikki o'g'li bor erdi, ulug' o'g'lining oti Al (Ali), kichigining oti Duyli qayi, Inalyovixon o'lar bo'lg'anda Duyli qayni o'rninda olturtib ketdi. Do'yli qayi ham Qo'rqut otaning so'zina amal qilur erdi va taqi Qo'rqutdin boshqa ikki inaq begi bor erdi, biri bayondur elindin Bukduz otli va taqi bir ig'dirdin Dunka otli, Duyli qayi ko'p yillar podshohliq qildi, o'g'li yo'q erdi, oshin oshab va yoshin yoshab umr qilib vafot topdi.

Duyli Qayining Inisi Erkining Podshoh Bo'lg'ani Va O'g'li Tumanning Dunyoga Kelganining Zikri

Duyli qayining bir yaqin qarindoshi bor erdi. Erki otli, ul aza egasi bo'lub olturdi, barcha O'g'uz eli ang'a yig'lab keldilar Qo'rqut ota boshliq barcha beklar so'rdilar xonning ko'chlaring hech bo'ylarinda bormu teb, bir doya xotun kelib aytdi: xonning bir harami homila turur, umidimiz bor, tez bo'lg'ay teb aytdi, bir necha kundin so'ng xonning o'luk oshini berib ulturub erdilar, xonning o'g'li bo'ldi teb sevinchi (44-bet) tiladilar Erki boshliq barcha beklar sevinchi berdilar. Erki xalqg'a Sovun (so'qum) soldi, har kim himmatiga loyiq savun kelturdilar, to'rt yuz yilqi va to'rt ming qo'y olturdilar, bulg'aridin uch hovuz tikturdi, birisini araq birlan va birisini qimiz birlan va birisini qatiq birlan olturdi. Bir oy kecha-kunduz to'ya barchasi yaxshi va yomon aysh va ishratg'a mashg'ul bo'lub, qarilar yoshin unutdi va yorlilar (faqirlar) molsizliqin unutdi va boylar o'lumin unutdilar. O'g'uz eli Qo'rqutg'a aytdilar bu o'g'long'a bir yaxshi ot qo'yg'il tedilar, Qo'rqut ota muning oti Tumanxon bo'lsun tedi, xalq aytdilar: mundin yaxshiroq ot qo'yg'il dedilar, Qo'rqut ota aytdi: mundin yaxshi ot bo'lmas tedi, ul kuni Duyli qayixon o'ldi ersa, bizning yurtimizni tuman tutub qorang'u bo'ldi bu o'g'ul tumanda tug'di, aning uchun Tuman ot qo'yduq va ikkinchi ko'nglumdin yaxshi irim va niyat qilib, aning uchun Tuman ot qo'yub to'rurmen kim tuman uzoq turmas, tez keta turg'an nimarsa bo'lur, tumanli kun oftob bo'lur, tumanning so'nggi yorur bo'lmay bo'lmas, ozg'ina turg'an tumanni bu o'g'lonning yoshliqina o'xshatibmen, so'ngi oftobli, bu o'g'lonning yigit bo'lub otasi taxtinda olturub davlatli va uzoq umrli bo'lg'anina o'xshatibmen tedi. Barcha xalq buni eshitib, Qo'rqutg'a ofarin deb xushhol bo'lub Tumang'a ko'p duolar qildilar va taqi Qo'rqut boshliq barcha xalq Erkig'a aytdilar: bir oy to'y qilding oshing tamom bo'lmasdi va hovuzlarga salg'an qimiz va ayroning (45-bet) gulning suvindin ko'p bo'ldi, emdi bu kundin so'ng seni Gulerki xon tegali, Tuman o'zungning o'g'ling turur, og'ang Duyli qayining o'rninda olturub xonliq qil va har qachon Tuman yigit bo'lsa, ang'a ne berurungni o'zung yaxshi bilursen tedilar, taqi Gulerkini xon qildilar, xalq birlan yaxshi ma'osh qilib olturdilar. Tuman yigit bo'ldi.

Duyli qayixonning boyiri kishilari Tumang'a so'z berdilar, podshohliq otangdin seng'a meros qolgan turur, barcha xalq ittifoq birlan Gulerkiga oriyat topshirub erdilar, bu shart birlan kim har qachon sen bolig' bo'lsang, sang'a topshurg'ay teb, Tuman bu so'zni Gulerkiga bir kishidin aytturdi: Gulerki bu so'zni eshitgandin so'ng xilvatda Qo'rqutg'a aytdi: taqi aning maslahati birlan elning yaxshilarini charlab, ulug' to'y qildi. Qo'rqutni evning to'rinda olturub, Gulerkxon yukunub, qimizli ayoqni sundi, Qo'rqut qimiz ichib, barcha xalq oshagandin so'ng Gulerki aytdi: ey, el va xalq barchangiz bilursizlar, podshohliq, Tumanning haqi erkanin, bu vaqtg'acha Tuman yosh erdi, aniig uchun men ishni qila turur erdim, emdi Tuman ulug' yigit bo'ldi, otasining taxtini topshira tururmen, tedi, barcha xalq Qo'rqutg'a aytdilar xonning va barcha O'g'uz elining ixtiyori sening qo'lungda turur, ne ishni munosib ko'rsang, ani qilg'il, tedilar, Qo'rqut bu so'zni eshitgandin so'ng kishi yibarib, Tumanni kelturub, evning o'tasinda olturub, aytdi: otang o'ldi, sen yosh qolding, Gulerki ham otang turur va ham (4b-bet) aqang, seni dunyoga kelgandin to bu chaqg'acha ko'p emgaklar birlan yaxshi asrab turur, toju taxt va el barcha yurt seninki turur sendin o'tunumiz bu turur kim bir necha kun sabr qilgil, aqangning bir-bir keyindin nariliqi yovuq bo'lub turur tedi ersa, Tuman aytdi, barcha O'g'uz elining yaxshisi otamning vaziri va menin bobom turursen, so'zingizni qabul qildim, tedi, Gulerkining bir qizi bor erdi, bisyor ko'rkligi ota-onasining barcha ishlarina erkli, Qo'rqut Gulerki birlan Tumang'a so'zlashib, yetti kecha-kunduz to'y qilib, podshohlarg'a loyiq asbob va -----[2] tuzuq birlan qizni Tumang'a topshurdilar, ul vaqtida avshar elining xoni bor erdi. Oyna otli bu qizni o'g'lig'a aytturub erdi, Gulerki qabul qilib, bermak bo'lub erdi, Oynaxon qizni Tumang'a berganin eshitgandin so'ng cherik tortib, Gulerkining ustiga yurdi, Gulerki ham ulug' cherik birlan qarshi borib, urushib Oynani bosti, Oynanining o'g'lini olturdi va avsharning lashqarin qirdi, Oynani qavub yurtina bordi, yurtini olib, olti oy anda olturdi, (47-bet) qochib o'zga elga bordi, Gulerki ont ichib, Oynag'a kishi yibarib, aytdi kim bu yomonliqni qilg'an sen emas erding, o'g'lung erdi ersa jazosin topdi, emdi sening birlan qarindosh tururmiz, kel taqi yurtungga ega bo'l, men qaytaturmen tedi. Elchi borib bu so'zlarning barchasini aytdi, Oyna inonib kelib Gulerkini ko'rdi, Gulerni taqi yurtini topshurub qaytib o'z yurtig'a tushdi.

Tumanning O'g'li Bo'lg'ani Va Ang'a Yovli Ot Qo'yg'anlari Va Yigit Yetishganidan So'ng Qonli Yovli Ot Qo'yg'anlarining Zikri
Tumanning Gulerki qizindin o'g'li bo'ldi, otini Yovli qo'ydilar tug'shili va alp bo'ldi va yigit yetildi, bir kun suvning yoqasinda yigitlar birlan o'ynay turur erdi, bir yigit birlan urushdi, ani urayin teb nimarsa izladi, yaqinda bir to'p qazg'anin o'zga nimarsa topmadi, aning uchindin tutub tubindin chiqarib ul yigitning, bo'ynig'a urdi ersa, bo'yni uzildi taqi o'ldi, Gulerki, xon, Tuman va Qo'rqut barcha beklar olturub erdilar Yovlining bu qilg'an ishin aytdilar, ersa ulug' va kichik va yaxshi va yomon va ko'rgan va

eshitgan tonglab xayron qoldi, Tuman aytdi: bu o'g'lonning otini bu vaqtg'acha (48-bet) Yovli deyturur erduk, emdi Qonli Yovli temak kerak tedi erta, andin so'ng ang'a barcha xalq Qonli Yovli tedilar. Kunlardan bir kun Gulerkixon o'rgada o'l turub erdi Tuman taqi anda hozir erdi, Qonli Yovli eshikdin kirib keldi va o'rta yerda o'l turdi taqi Gulerkiga boqib aytdi ey, bobo bu o'l turg'an taxting ulug' otam Duyli qayining turur bu vaqtgacha otam Tumanni yosh turur teb, bermading, emdi ne uchun bermay turursen tedi. Gulerkixon boshini qo'yil solib ko'p o'l turdi taqi bir fursatdin so'ng boshin ko'tarib aytdi: bu so'zni men sendin burunraq aytur teb umid qilur erdim va xossa ulkun kim tikan birlan kishining bo'yin uzdung, rost aytatursen, xo'b bo'lur, yaxshi bo'lur, emdi otangg'a topshurmak kerak.

Tumanning Xon Bo'lg'anin Zikri

Gulerki bu so'zlarni nabirasidan eshitgandin so'ng Qo'rqu boshliq barcha O'g'uz elina kishi yibarib kelturub, ulug' to'y qilib Tumann xon ko'tarib taxtinda o'l turub, Gulerki ayoq ustunda turub, Tumanxon'a aytdi: otang o'lub, men bu taxtda o'l turub, elni so'rayturg'ali o'ttuz besh yil turur, sendin umidim ul turur kim men nechuk elning yaxshi va yomonni so'rub, yo'l birlan podshohliq qilib yurigan bo'lsam, sen ham o'shul yo'l birlan yurigaysan tedi. Tuman aytdi: yaxshi aytta turursiz, agar mening davlatim bo'lsa, sizning bu nasihatlarining qabul qilg'ayman, tedi, yurt so'zlar tamom bo'lg'andin so'ng Gulerkixon Qonli Yovlining yuziga boqib aytdi: ey qizim o'g'li qizidin bo'lg'anning do'stliqi bo'lmas teb eshitib erdim, burunqi o'tganlarning so'zlarini yolg'on qilmading tedi. Tumanxon to'rt oy xonliq qilg'andin so'ng Qo'rqu boshliq barcha xalq Tumang'a aytdilar Tangrig'a shukr qilg'il, Qonli Yovliday yaxshi o'g'lung bor, munosib ul turur kim podshohliqni ang'a berib o'zung ayshu ishratg'a mashg'ul bo'lg'aysan, tedilar ersa, Tumanxon qabul qildi, taqi podshohliqni o'g'lig'a berib, tinch ko'ngul Tangrining bandaligin qilib o'l turdi.

Qonli Yovlining Xon Bo'lg'anining Zikri

Ul ajoyib bahodir va mergan va alp erdi, to'rt tarafinda yurtlarning barchasini yovlab olib o'ziga baqturdi, aning zamoninda bo'ri qo'yga va bars kiyikka va burgut quyong'a va qarchig'ay kaklikka zo'r qila bilmadi, ellarni tuzub va yog'ilarni buzub va o'z zamonindaq podshohlardin o'zub, to'xsan yil podshohliq qilib vafot topdi.

Muryovining Xon Bo'lg'anining Zikri

Qonli Yovlining ikki o'g'li bor erdi, ulug'inining oti Muryovi va kichikning oti Qora Alp Arslon, o'lar bo'lg'anida yurtini ikki bo'ldi, Turkiston va Yangikentni Muryovig'a berdi, Tolash birlan Sayramni Qora Alp Arslon'a berdi, bir necha yil o'tgandin so'ng Qora Alp Arslon aqasi Muryovi birlan yog'i bo'ldi, el yaxshilari orada yurub ko'p nasihatlar qilib, yarashturali tedilar, Qora Alp Arslon rozi bo'lmasdi, axir ikkisi lashkar tortib, Sayram ustinda urushdilar. Muryovi g'olib keldi, Qora Alp Arslon urushda o'ldi, barcha ellarini chopib, bir yil anda (50-bet) turub, qaytib eviga tushdi. Qora Alp Arslonning bir kichik o'g'li bor erdi, ani va ko'chlarini Muryovi olib keldi va mundin bir necha yillar o'tdi, bir kun Muryovi o'l turub erdi. Qora Alp Arslonning o'g'li keldi, aning yuziga boqib yuziga aytdi: agar otang nodonliq qilib, mening birlan yog'i bo'lmasa erdi, mundaq yetim bo'lub sarg'arib yurmas erding, darig'o na qilayin teb ko'p yig'ladi taqi aytdi: sening oting Alp Tug'ach bo'l sun tedi, otasindin qolq'an yaxshi kishilarini kelturub Alp Tug'achni anqa topshurub, otasining yurtini berib ko'churub yibardi, xalqg'a hukm qildi: Qora Alp Arslonning elindin o'lja qilib kelturgan kishilarin qaytara yibarsun teb, Alp Tug'ach borib otasining yurtinda o'l turdi, to'rt yoqqa ketganning barchasi ang'a yig'ildi, Muryovixon yetmish besh yil podshohlik qilib, ul dunyog'a ketdi.

Muryovi O'g'li Quraning Xon Bo'lg'anining Zikri

Muryovining xotunlaridin o'g'li yo'q erdi, O'raxon teginning elin chopib olg'anda bir zaifani o'lja qilib bir necha kun baqib yibardi, ul zaifa yurtig'a barg'andin so'ng Muryovixonidin homila bo'lub tururmen tedi. bir necha oydin o'g'ul tug'urdi, otini Qora qo'ydilar, tag'aylorining ichinda o'sdi, yigit bo'lg'andin so'ng qochib Muryovixon qatig'a keldi, Muryovixon ham ani o'g'ul qildi, Muryovi o'lqandin so'ng barcha xalq yig'ilib, ani xon ko'tardilar, el birlan yaxshi maosh qilib, qirq yil xonliq qilib vafot topdi. (51-bet).

Bug'raning Xon Bo'lg'anining Zikri

Qoraxonning Bug'ra otli o'g'li bor erdi, barcha xalq Qoraxon o'lqandin so'ng Bug'rani podshoh ko'tardilar, Bug'raxon barcha o'tgan otalaridin ortuq bo'ldi, ulug' lashkar birlan kelib Buxoro va Samarcandni olib, o'z qarindoshlari yurtinda yog'i bo'lg'an sababdin tura bilmay qaytib ketdi, andin so'ng kelib Xorazm mamlakatini olib ko'p yillar anda podshohliq qildi, bir karrat orqa tarafig'a lashkar tortib bora turg'andi bir kun xon aytdi: ko'nglimiz bug'doy unindin bo'lg'an oshni tilay turur, ugra va o'zga osh qilg'ali bavurchi va oshning asbobi topilmadi, xon un kelturtdi va xamir qildurdi va o'zi qo'li birlan yozib qozong'a soldi, o'l turg'an navkarlari ham xonga yoruliq qildilar, pishirib ichdi taqi aytdi: bu oshning oti Bug'ra xoni yob'l sun tedi. Bu kun xalq ichinda bug'ra teb pishira tururlar, ul osh turur. Xonning o'g'li bor erdi, ulug'ning oti El tegin va ikkinchisining oti Qo'zi Tegin va uchunchisining oti Beg Tegin, Tegin ma'nisi, qadim turk tili birlan yaxshi suvratlari temak bo'lur. Xon qari bo'lg'anidin so'ng podshohliqni Qo'zi Tegin'a berdi taqi o'zi tinch o'l turdi. Bobir otli xotuni bor erdi, bisyor oqila va zohida va obida va soliha va kafiya erdi, o'g'lining onasi erdi, ul vafot topdi erta, Bug'roxon ulug' aza tutdi, bir yilkacha kishi birlan so'zlashmadni va evdin chiqmadi. Bir kun Qo'zi Tegin otasiga qachong'acha aza tutub g'amgin bo'lub (52-bet) o'l turasiz, ovg'a chiqing, shoyad ko'nglingiz ochilg'ay teb, otasini har bir kun bir tarafga ovg'a va sayrga olib chiqdi bir necha kundin so'ng emdi xonning ko'nglina havo va havas paydo bo'ldi, bulg'ay tegan vaqtida aytdi, beklar aytta tururlar xong'a munosib ul turur kim kadxudo bo'lg'aylar, xon aytdi: andaq xotun ne yerdin topilurki kelib onangning o'min tutg'ay tedi, Qo'zi Tegin onam teg bo'lmasa andin yigrak bo'l sun tedi, xon harchand kadxudo bo'lman tedi, ammo Qo'zi Tegin ixtiyorina qo'yadi.

Avshar elinda Egranj teganning ko'rqli yaxshi, yurtda ot ko'targan ko'rqli qizi bor erdi, ani xong'a olib berdi, ul badbaxt qizning ko'nglina bu ma'qul bo'ldi kim Qo'zi Teginning mang'a mayli bor, aning uchun meni otasiga bahona birlan olib beraturur, to o'zi menin birlan pinhoniy aysh qilg'ay, yo'q ersa, qari kishiga menin teg sohibjamol qizni olib berur erdi teb, bir kun Qo'zi Tegin otasini ko'rayin teb keldi erta, xon uxlab yotib va xotun o'l turub erdi, Qo'zi Teginning qatira kelib yuvin va ko'zin silab siypab erdi, eri bilan o'ynag'anda xotunlar netak qilurlar, shundaq qila boshlad. Qo'zi Tegin ko'nglindin bu onam o'rnig'a bo'lub, mang'a mehribonliq qila turg'an turur (53-bet) tedi yana bir necha kundin so'ng xilvatga topib Ko'zi Teginning aytdi: hech menin holimdin xabarining bormu men sang'a oshiq tururmen, kechalar uyqum va kunduzlar qarorim yo'q, menin holimg'a qaramas bo'l sang ne uchun meni qari kishiga olib berding, tedi. Qo'zi Tegin aytdi: sen menin onam turursan, agar bu kundin so'ng bu qilg'ingni

qo'ymasang seni pora-pora qilib har muchangni bir yerda qo'yarmen tedi, xotun voqiatni o'zining qarintosh xotunlarig'a aytib kengashti ersa, onlar aytdilar, Qo'zi Tegin bu so'zni xong'a, xalqg'a aytmasdin burun aytmaq kerak, yo'q ersa o'lumg'a ketarsen teb barchasi ittifoq birlan bir xotunni yibardilar, ul xotun borib Qo'zi Teginning evindin o'tukni o'g'urlab kelib Bug'raxonning eviga kelib taqi qaytib borib o'tukni yerinda qo'yub keldi, ul xon evda yo'q erdi, ovg'a borib erdi, tun yarimdin so'ng ozg'ina qor yog'ib erdi, sahar vaqtinda xotun qichqira boshladi, tong otqandin so'ng xalq eshitdilar kim o'rgadin yig'lagan xotinning ovozi chiqa turur, er va xotun barcha yig'ilib o'rganing eshikina bordilar ersa, ko'rdilar kim xonim yuzin yirtib, barcha yerini qon qilib aytur kim bu kecha sahar vaqtinda uxbor yotib erdim, bir kishi kelib qo'yning'a kirdi, ko'rdum ersa,

Qo'zi Teginxon aytdi qichqirma, men tururmen, sang'a oshiq bo'lub, otamga olib berdim, aning uchun kim kunduz otamning bo'lsang kecha meniki bo'lq'aysan teb, yo'q ersa, otam xotunni ne qilur erdi tedi, qichqira berdim (54-bet), onasig'a mundaq ish ne yerda bor teb, mendin bu so'zni eshitgandin so'ng qochib chiqib ketdi, yoninda yotqan xotunlar bu so'zga guvohlik berdilar va taqi xonim aytdi: mundin yaxshiroq guvoh bo'lmas, yer qor turur izini ko'rung tedi, izni ko'rdilar, Qo'zi Teginning evindin chiqib, o'rgaga kelib taqi qaytib Qo'zi Teginning evig'a borib turur, Qo'zi Tegin izning qatig'a kelib ayog'in qo'ydi, ikkisi bir teg bo'lidi, Bug'raxon ovdin keldi, ang'a ham aytdilar, xon boshliq barchasi beklar Qo'zi Teginni chaqirib aytdilar, bu ne turur kim kecha sen qilibsen, Qo'zi Tegin ul xotundin ko'rganin va eshitganin aytdi taqi tedi men uyalg'anidin ayta bilmadim, ikkinchi ul kim zaifani otamg'a men olib berib erdim, xalq ichinda rasvo bo'lmasun tedim, ul mendin burun qarbandi (aytib turur) tedi, xalq ikki bo'lak bo'ldilar, yarimi xotun so'ziga inondilar, yarimi Qo'zi Tegiye so'ziga inondilar, axir barchalari ittifoq qilib, xonim yoninda yotqan xotunlarni xon oldig'a kelturub so'rdilar, aytmadilar, siyosat qilur bo'ldilar ersa, avvaldin to oxirigacha qilg'an kengashlarina avsharning xotunlarining aytg'an so'zlarini va o'tukni o'g'urlag'anini bir-bir aytdilar ersa, Bug'raxon Qo'zi Teginning'a aytdi bu xotunni unamay erdim, shundaq bir fitna bo'lur teb, sen meni ixtiyorimg'a qo'yamading. Emdi muni ne qiluringni sen yaxshi bilursen tedi ersa, Qo'zi Tegin buyurdi besh emlak (qisraqli) baytalni kelturub ikki ayog'in va ikki (55-bet) qo'lin va bo'yin har qaysisin bir baytalning quyrug'ig'a bog'lab, baytallarning butlarina tizzaning uchi birlan sanchdilar, to'lay-to'lay xotunni besh pora qilib, har qaysisi bir andomni o'z o'gurina olib ketdi. Bug'raxon ko'p yillar podshohliq qildi va to'xsan yashab o'ldi.

Bug'raxonning O'g'li Qo'zi Teginning Xon Bo'lg'anining Zikri

Qo'zi Tegin otasi taxtinda o'lthurub, dushmanlarini yig'latib va do'stalarini kuldurub, elga adolat qilib, faqir miskin'a xayr va ehson qilib qiriq yil xon bo'lub yetmish besh yoshig'a yetganda o'g'li Arslonni o'rninda o'lurtub vafot topdi.

Qo'zi Tegin O'g'li Arslonning Xon Bo'lg'anining Zikri

